



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



DO'LANA O'SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA UNING TIBBIYOTDAGI O'RNI

Mustafoyeva.Z.N

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Do'lana o'simligi O'zbekistonda keng taqalgan dorivor o'simliklar qatoriga kiradi. Do'lana mevasi yurak xastaligi, qon bosimi va uyqusizlikdan aziyat chekayotganlarga tabiatning sovg'asidir, lekin bo'lajak onalarga uni iste'mol qilish xavfli bo'lishi mumkin*

Kalit so'zlar: *Do'lana, flavonoidlar, vitaminlar, Abu Ali ibn Sino, vaqtdan oldingi tug'ruq.*

Аннотация: *Боярышник является одним из широко используемых лекарственных растений в Узбекистане. Боярышник – подарок природы тем, кто страдает сердечно-сосудистыми заболеваниями, повышенным давлением и бессонницей, но может быть опасен для будущих мам.*

Ключевые слова: *Боярышник, флавоноиды, витамины, Абу Али Ибн Сина, преждевременные роды.*

Абстракт: *Hawthorn is one of the most widely used medicinal plants in Uzbekistan. Although hawthorn fruit is a gift of nature for those suffering from heart disease, high blood pressure, and insomnia, its consumption can be dangerous for expectant mothers.*

Keywords: *Hawthorn, flavonoids, vitamins, Abu Ali ibn Sina, premature birth.*

Do'lana (*Crataegus L.*) — ra'nodoshlar oilasiga mansub daraxt yoki buta. Balandligi 6–10 m, tanasining yo'g'onligi 40—50 sm, sershox. 890 turi bor, shundan 10 turi O'zbekistonda o'sadi, Xitoy, Ispaniya, Italiya, Jazoir, Amerika va b. mamlakatlarda ham tarqalgan. Barg cheti yirik tishli yoki patsimon bo'lingan, poyaga ketma-ket o'rnashgan. Guli mayda, to'pgulga yig'ilgan. Mevasi 1—5 danakli. Do'lananing manzarali o'simlik sifatida o'stiriladigan, shuningdek, bo'riko'z do'lana, sariq do'lana, qizil do'lana degan turlari bor. Do'lana yovvoyi holda O'zbekistonning tog'li tumanlarida, dengiz sathidan 1000–1500 m balandlikda, ko'pincha, yakka holda usadi, ba'zan kichik do'lanazorlar ham uchraydi. Ba'zi turlarining mevasi yirik, ko'p iste'mol qilinadi. Sariq do'lana guli nektar (gulshira)ga boy. Do'lana may—iyunda gullaydi, sentyabr oxirlarida pishadi, 25—30 yoshli daraxti 70–80 kg hosil beradi. Xalq tabobatida ishtaha ochuvchi, ichni qotiruvchi dori sifatida qo'llanadi.

Do'lana bargi, po'stlog'i va ildizi qaynatmasi bilan matolarni sariq va qo'ng'ir rangga bo'yash mumkin. Do'lana olma, nok, behi uchun yaxshi payvandtag bo'ladi. Urug'i, ildizi, ildiz bachkisi va ildiz poyasidan, parhish yo'li bilan ham ko'paytiriladi. Danagining qobig'i juda qattiq, ekilgandan keyin 2- yoki 3- yili unib chiqadi. Uni sulfat kislotaga 12 soat solinib, nam qumda baxrrgacha saqlansa, 1-yiliyoq unadi. Do'lana sovuqqa, qurg'oqchilikka



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



chidamli. Do'lanadan yashil devor va daraxtzorlar hosil qilishda, eroziyaga qarshi tog' yon bag'irlarini mustaqamlashda foydalaniladi.

Do'lana mevalarining tarkibida 20 % qand, 8 % yog', 0,67—0,88% olma kislota, flavonoidlar (giperozid, kversetin, viteksin), fitosterinlar, xolin, asetilxolin, oshlovchi moddalar, karotin, vitamin C, organik kislotalar, krategin moddalari mavjud. O'zbekiston sharoitida o'sadigan do'lanalarning ba'zi turlarida vitamin B1, B2, PP, C, E borligi aniqlangan. O'simlik gullarida yuqorida qayd qilingan moddalardan tashqari, 0.16% ga yaqin efir moylari bor. Xalq medetsinasidan do'lanadan kishi toliqqanda, aqliy xorg'inlikda, uyqusizlikda, yurak atrofida og'riq paydo bo'lganida davo sifatida foydalanilgan. Abu Ali Ibn Sino do'lana mevasini ich ketishini to'xtatuvchi vosita sifatida tavsiya etgan. Do'lananing shifobaxsh xususiyatlaridan hozirgi zamon medetsinasida ham keng foydalaniladi. Do'lananing spirtli nastoykasi va ekstraktini vrachlar angionevroz (qon tomirlarining nevrozi, qon tomirlarining funksional kasalligi), yurak faoliyatining buzilishi, qon bosimining ortishi, yuqumli kasalliklarga chalingan bemorlar yuragining quvvatsizlanishi, tanglay murtaklarini yallig'lanishi kabi kasalliklar bilan og'rig'an bemorlarga ichishni tavsiya qiladilar. Do'lana mevasidan uy sharoitida qaynatma tayyorlash uchun 20 g do'lanaga yarim choynakcha (200 g) qaynoq suv solib yengil alanga ustidan 15 daqiqa qaynatiladi. Qaynatma sharbatini choy o'rnida ichilsa ham bo'ladi Do'lana mevasidan xonaki qiyomham tayyorlanadi. Buning uchun 25 g do'lana mevasi 200 g qaynoq suv bilan qaynatilib quyiltiriladi. Qiyomsimon moddadan kuniga 3 mahal ovqatdan so'ng 40 tomchidan ichiladi. Do'lana gullaridan qaynatma (otvar) tayyorlanishi mumkin: buning uchun 2 osh qoshiq quritilgan do'lana guli ustiga bir stakan miqdorda qaynoq suv solib, yengil alanga ustida 10 daqiqa qaynatiladi. Qaynatma sovutilgach, dokada suzilib, osh qoshiqda kuniga uch mahal ichiladi.

Tibbiyotdagi o'rni. O'lkamizda do'lananing uch turi iste'mol qilinadi. Farmatsevtika sanoatida asosan qizil, sariq rangli do'lanadan foydalaniladi. Do'lana mevalari turiga qarab, qizil, sariq va qora rangli bo'ladi. Uning bargi, gullari va mevalari shifobaxshdir.

Do'lona oshqozon-ichak trakti, xususan, hazmsizlikni davolash uchun ham foydalidir. Do'lana mevasi tarkibida prebiyotik vazifasini bajarib, hazm qilishga yordam beruvchi tola mavjud.

Yurak faoliyatini yaxshilashda ajralmas hisoblanadi, u yurak yetishmovchiligini davolashda qo'llaniladi: mevalar ham taxikardiya, ham bradikardiyaning yo'q qiladi. Yurak ritmini tiklaydi.

Do'lana mevalarining tarkibida 20 foiz qand, 8 foiz yog', flavonoidlar, xolin, asetilxolin, oshlovchi moddalar, karotin, S vitamini, organik kislotalar kabi moddalar mavjud. O'zbekiston sharoitida o'sadigan do'lananing ba'zi turlarida V1, V2, RR, S, Ye vitaminlari borligi aniqlangan.

Abu Ali ibn Sino do'lananing shifobaxsh xususiyatlari to'g'risida bunday deb yozgan: "Do'lana safroni so'ndiradi. Boshqa mevalarga qaraganda suyuqliklarning oqishini kuchliroq to'xtatadi. Ich ketishini bartaraf qiladi va siydik tutilishidan saqlaydi". Ko'pgina jahon xalqlari xalq tabobatida do'lana ich ketishida, toliqishda, aqliy horg'inlikda, uyqusizlikda,



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



asabiylashganda, yurak og‘riganda, klimaks davrida, revmatizm asoratidan paydo bo‘lgan revmokarditda, aterosklerozda, qon bosimi oshganda, bosh aylanishi, yo‘talda iste‘mol qilinadi.

Hozirgi kunda farmatsevtika sanoatida do‘lana gullaridan tayyorlangan tindirma va turli boshqa giyohlar bilan birga tayyorlangan dori vositalari ateroskleroz, nevroz, asab tizimi va yurak qon tomir kasalliklarida keng foydalanilmoqda

Do‘lanani och qoringa iste‘mol qilmaslik kerak. Chunki, u ichakni qisib (spazm) qayt qildiradi. Bu mevani iste‘mol qilgandan keyin ustidan sovuq suv ichish mumkin emas, aks holda u me‘da-ichak sanchig‘iga sabab bo‘lishini unutmang.

Shuningdek, uni ortiqcha iste‘mol qilish buyrakka zararli bo‘lib, me‘da-ichakni zaiflashtirib, qulanj (kolit) xastaligi, ko‘ngil aynishi, qayt qilishni paydo qiladi. Shu bilan birga homiladorlar ham istemol qilishi mumkin emas. Sababbi vaqtdan oldingi tug‘ruq va qon ketishiga olib keladi. Mevaning qaynatma, damlama, qiyom va undan tayyorlangan preparatlar bilan davolanish faqat shifokor maslahati bilan va uning nazorati ostida qo‘llanishi lozim.



Xulosa. Do‘lana mevasini iste‘mol qilish so‘g‘liq uchun foydali. Uning mevasini qoynatib ichish ham inson salomatligining tiklanishiga yordam beradi. Do‘lana o‘simligi yurak ishini boshqaradi, immunitetni ko‘taradi, kun bo‘yi kayfiyatni ko‘tarib turadi. Lekin och qoringa do‘lana mevasini iste‘mol qilish tavsiya etilmaydi. Shu bilan birga homiladorlar ham istemol qilishi mumkin emas. Sababbi vaqtdan oldingi tug‘ruq va qon ketishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
- 2.<https://zamin.uz/uz/tibbiyot/28455-dlananing-foydali-hususiyatlari.html>
3. <https://shifo.uz/article/do-lana-haqida>
- 4.[https://Wikipedia.org>wiki>Do‘lana](https://Wikipedia.org>wiki>Do'lana)
5. [https://oz.sputniknews.uz>yangiliklar>Do‘lana](https://oz.sputniknews.uz>yangiliklar>Do'lana)